


2021-yil yanvar-noyabr oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida jami **23565,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **123,7 %** ni tashkil etdi.




2021-yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 9,0 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **108,7%** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,0%**), fuqarolik obyektlarini qurish **118,4%** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,0%**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **113,0%** ga (jami qurilishdagi ulushi **44,0%**) o'sishidir.




Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.12.2020-yil	01.12.2021-yil	
Toshkent sh.	8017	9004	112,3
<i>tumanlar</i>			
Bektemir	175	201	114,9
Mirzo Ulug'bek	1024	1147	112,0
Mirobod	750	842	112,3
Olmazor	666	762	114,4
Sergeli	562	489	87,0
Uchtepa	602	656	109,0
Chilonzor	1054	1152	109,3
Shayxontohur	649	731	112,6
Yunusobod	1067	1148	107,6
Yakkasaroy	838	907	108,2
Yangihayot		200	
Yashnobod	749	854	114,0



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da 01.12.2021-yil holatiga ko'ra




Ma'lumot uchun: shaharda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Yunusobod tuman (13,0%), Chilonzor tuman (12,7%) va Mirzo Ulug'bek (12,6%) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **8 478,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020-yilga nisbatan **172,6%** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020-yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **9,6%** punktga koʻpayib, **36,0** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Uchtepa tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 73,4%i yoki 2020-yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 520,8%), Shayxontoxur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **49,8%** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 247,5%), va Olmazor tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,5%** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **119,0%**) ga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

■ 2020- yil yanvar-noyabr

■ 2021- yil yanvar-noyabr


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021-yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,4%** i to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **9,3%** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan **106,1%** ni tashkil etgan holda **12 827,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **9,6%** ni tashkil etdi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,9** punktga kamaygan va **2 259,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020-yilga nisbatan **109,2 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so‘m



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **843,4** mlrd. so‘m yoki 2020-yilga nisbatan **114,9%** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **22722,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shir sur‘ati **124,0%** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **3,6%** va **96,4%** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021-yil yanvar-noyabr oylarida

67,9%

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **67,9 %** i yoki **16003,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

71,1%

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **6027,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **71,1 %** ni tashkil etdi.

66,6%

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **8538,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **66,6 %** ni tashkil etdi.

63,6%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1437,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **63,6 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021-yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Toshkent sh.	23 565,4	123,7	100,0
<i>tumanlar</i>			
Bektemir	856,7	159,3	3,6
Mirzo Ulug‘bek	2845,4	108,4	12,1
Mirobod	2313,6	105,3	9,8
Olmazor	1905,4	110,3	8,1
Sergeli	1208,5	142,6	5,1
Uchtepa	2843,2	253,4	12,1
Chilonzor	1779,9	104,5	7,6
Shayxontohur	1885,9	166,7	8,0
Yunusobod	3311,8	101,1	14,1
Yakkasaroy	1767,3	101,6	7,5
Yangihayot	781,2	324,6	3,3
Yashnobod	2066,3	108,2	8,8

*Tumanlar bo‘yicha taqsimlangan hajmni qo‘shgan holda



Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,% da

2020-yil yanvar-noyabr

14,3




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

19,0



Fuqarolik obyektlarini qurilish ishlari

66,7



Bino va inshootlarni qurilish ishlari

2021- yil yanvar-noyabr

19,6



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

23,1



Fuqarolik obyektlarini qurilish ishlari

57,3



Bino va inshootlarni qurilish ishlari

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **28,5%** ni tashkil etib, 2020-yil ko'rsatkichga nisbatan **3,7%** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,2%** punktga ko'payib, **54,8%** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan **8,9%** punktga kamayib, **16,7%** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **64,9%** ni tashkil etdi va 2020-yilga nisbatan **26,3%** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **35,1%** (**25,7%** punktga kamayish)ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020-yilga nisbatan **4,1%** punktga ko`paydi va **23,9%** ni tashkil etdi. Qolgan **76,1%** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2020-yilga nisbatan **4,1%** punktga kamaydi.





Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Uchtepa (tumandagi qurilish hajmining **73,4** % ni tashkil etdi) va Shayxontohur (mos ravishda **49,8**%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari
2021-yil yanvar-noyabr oylarida

Eng yuqori hajm
(mlrd. so'm)

Yunusobod
3 311,8

2

Uchtepa
2 843,2

1

Mirzo Ulug`bek
2 845,4

3



Kichik hajm
(mlrd. so'm)

Yangi xayot
781,2

2

Sirg`ali
1 208,5

1

Bektemir
856,7

3





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: D.Rustamov
Aloqa telefoni: (71) 203-88-19